

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 22 (67239)  
2019-yil 3-iyun

# Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092



## DILLAR TO'LA HAYAJON, BUGUN BIZDA IMTIHON

*Shu kunlarda respublikamizning barcha umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bilimlari sinovdan o'tkazilmoqda. Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 226-umumta'lim maktabi o'quvchilari ham bosqichli nazorat imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, ustozlari ishonchini oqlashni maqsad qilishgan.*

**Aziz o'quvchim! Mana, o'quv yili yakunlanib, bilimingiz sinaladigan damlar ham boshlandi. Agar yil bo'yi fanlarni puxta o'zlashtirgan bo'lsangiz, bir bor takrorlashda imtihonga tayyor bo'lasiz. Aksincha, «Chumoli va ninachi» masalidagi ninachi kabi ish tutgan bo'lsangiz, unda shunga yarasha natija bo'lishi achinarli-da! Yo'q, yo'q, hali ham vaqt bor, bir kechada o'qib olaman, deysizmi? Unda omadingiz kelib, imtihondan bir amallab o'tib olishingiz mumkin, ammo... Unutmangki, bilim insonga bir umr yo'ldosh bo'lmog'i lozim. Aslida, bosqichli nazorat imtihonlari ham aynan o'quvchining mazkur o'quv yili davomida egallagan bilimlarini mustahkamlab, keyingi o'quv yiliga poydevor tayyorlamoq maqsadida o'tkaziladi. Bugun ushbu mavzu to'g'risida mulohaza yuritar ekanmiz, sizlarni umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining bosqichli nazorat imtihonlarini o'tkazish tartibi va tengdoshlaringiz taassurotlari bilan tanishtirmoqchimiz.**

## TINCHLIK SAQLANSIN: IMTIHON KETMOQDA!

Bosqichli nazorat imtihonlari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 5–8 va 10-sinflarida yozma yoki og'zaki imtihon yoxud test sinovlari shaklida muayyan fanlarning amaldagi o'quv dasturi asosida o'tkaziladi. Imtihon jarayonida o'quvchilar tomonidan yordamchi vositalardan (xarita, globus, jadvallar, chizmalar, mulyaj, gerbary, preparatlar, laboratoriya asbob-uskunalar) foydalanishga ruxsat berilar ekan. Ammo uyali aloqa vositasini qo'llash mutlaqo taqiqlanganini bilsangiz kerak, albatta.

Imtihonlarni o'tkazish tartibiga ko'ra, yillik ijobiy baholarga ega bo'lgan o'quvchilarni sog'lig'i tufayli bosqichli nazorat imtihonidan ozod etish, yashash joyidagi tibbiyot muassasasi tibbiy nazorat komissiyasining xulosasi asosida, maktab direktorining buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quv yili davomida faqat a'lo baholarga o'qigan va namunali xulqqa ega bo'lgan o'quvchilarning imtihonlardan ozod qilinishini yaxshi bilasiz.

Endi esa, keling, bilimni sinovdan o'tkazgan tengdoshlaringizning fikrlari bilan tanishamiz.

**Isroil MIRKAMOLOV, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi:**

– Bu yil 8-sinfni tamomlagan o'quvchilarga ingliz tilidan majburiy, davlat va huquq asoslari yoki geografiya fanidan tanlov asosida imtihonlar belgilangan edi. Biz sinfdoshlarim bilan birga davlat va huquq

asoslari fanini tanladik. Avvalo, ingliz tili fanidan imtihon topshirar ekanman, grammatikasini yanada chuqurroq o'rganishim zarurligini bildim. Og'zaki sinovda esa qo'shimchalarni o'z o'rnida qo'llash nechog'li muhim ekanini tushundim. Ikkala imtihonni ham muvaffaqiyatli topshirdim. Ustozlarim Xurshida Eshimova va Munira Shorahmedovanning mehnatlarini oqlay olganimdan xursandman.




**Gulyuz KAMOLOVA, Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 104-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi:**

– Men birinchi marta imtihon topshirdim. Bu sinovlar menga endi biz ham ancha ulg'ayib qolganimizni anglatganday bo'ldi. Matematika fanidan bo'lgan imtihonda misol va masalalarni yechish o'ziga yarasha mashaqqat talab etdi. Ba'zi misollarni osongina yechgan bo'lsam-da, ayrimlarining javobini keltirib chiqarish uchun puxta bilim va ziyraklik talab etildi. Ustozim Dilobar opa Muhammadiyeva bejizga har bir formula va qoidani yodda saqlab qolishimiz kerakligini aytmagani ekanlar.

So'zimiz so'ngida sizga nafaqat fanlardan, hayot saboqlaridan bo'ladigan imtihonlarda ham omad tilaymiz! Ulardan muvaffaqiyatli o'tish uchun hozirdan poydevor yaratishni unutmang! Zero, yoshlik bilimlar toshga naqshdek o'yib yoziladigan, kelajakka mustahkam zamin yaratiladigan palladir.

Sayyora QODIROVA



## FARG'ONADA IKKI KUN

**Farg'onaga juda ko'p marta borganman. Har safar ilg'or g'oyalarni ilgarilashda peshqadam yoshlardan hayratlanib kelganman.**

Erkin Vohidov ijod maktabining bir yilligi tan-tanalarida ishtirok etarkanman, bu maktabda haqiqiy iste'dodlar ta'lim-tarbiya olayotganiga guvoh bo'ldim. Ha, oddiy xalq bolalari turmush tashvishlariga esh bo'lib, intilib, orzular hayotda chiniqmoqdalar. Shuning uchunmi, tantanalarda o'qilgan she'rlar, aytilgan fikrlar, sahna ko'rinishlari... bari-bari betakror edi.

Erkin Vohidovning turmush o'rtog'i Gulchehra opa ham, O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ham tantanalarning bevosita ishtirokchisiga aylandi. Chunki ularning dil izhorlarini videoyozuv orqali ko'rdik, eshitdik...

E'tiborli tashkilotchilar bizni Yoshlar bog'iga yetaklashdi. Texnikaning qudratiga, bilimdonlar sur'atiga yana qoyil qoldim.

42 gektar maydondagi bu bog'ning kitobxonlar bekati to'xtaysiz va aytaylik, Muhammad Yusufning surati yoniga qo'l telefonini tutib, jonsiz suratni jonlantirib olasiz. Shoirning ijodi, faoliyati telefoningizda to'laligicha namoyon bo'ladi, hatto o'zi o'qigan she'rlarni eshitib, hayajonga tushasiz.

Xitoydan keltirilgan poyezd sizni yana ajabtovur bekatlarga boshlab borishda davom etadi... Buvayda, Uchko'priq, Bag'dod tumanidagi hayratlarimiz yanada havaslarga aylandi.

Umida ABDUAZIMOVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

## A'LOCHIGA 500 000 SO'M

**Bir yil davomida maktabda o'tgan davrimdan ko'nglim to'lyapti. Boisi, bu yil menga juda omadli keldi. Olimpiada va ko'pgina tanlovlarda qatnashdim.**



«Ilm-fan kelajak poydevori» shiori ostida o'tgan «Qizlarjon» o'quvchi-qizlar sammitida ishtirok etib, sertifikat va faxriy yorliq bilan taqdirlandim. Shuningdek, «Vatan – Muhammad Yusuf nigohida» mavzusida o'tkazilgan rasmlar tanlovida 2-o'rin sovrindori bo'ldim.

Ha, yana men maktabda «Yoshlar ittifoqi» sardorlar Kengashi a'zosiman. Bilim olishdan, berilgan imkoniyatlardan foydalanishdan zavqlanaman.

Ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib, yaxshi natijalarga erishganim uchun o'quv yili so'ngida maktabimiz rahbari tomonidan faxriy yorliq hamda 500 000 so'm pul mukofoti bilan taqdirlandim.

Mening bu yutuqlarimdan ota-onam behad quvonishdi. Fursatdan foydalanib, ustozlarimga, sinf rahbarim Vazira opa Qurbonovaga o'z minnatdorчилиgimni bildiraman. Zero, yutuqlarga erishishimda o'qituvchilarimning xizmatlari beqiyos.

Aziza IBRAGIMOVA,  
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
64-umumta'lim maktabining 10-«A» sinf o'quvchisi

**Kashimiz taqozosi bilan qay bir ijodkorni suhbatga chorlasak, adabiyot atalmish sehrli olamga kirib kelishida respublika bolalar va o'smirlar nashri – «Tong yulduzi» gazetasi o'rnini borligini e'tirof etishadi. Qaysidir jurnalist qalami ushbu darohda charxlanganini ta'kidlasa, qay bir shoir yoki yozuvchi shu gazetada chop etilgan she'ri yoki hikoyasi orqali ilk ijod zavqini tuyganini xotirlaydi.**

# MUBORAK YOSHINGIZ UBORAK, USTOZ!

Ayni kunlarda o'zining muborak yoshini qarshilayotgan serqirra ijodkor ustozimiz, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, taniqli shoir, yozuvchi Abdusaid KO'CHIMOVning esa bu nashr bilan bog'liq xotiralari boshqalarnikidan ikki hissa ko'pligiga aminmiz. Boisi, ustoz mazkur bolalar nashri «Tong yulduzi» gazetasi uzoq yillar mobaynida turli vazifalarda faoliyat ko'rsatganlar.

Abdusaid Ko'chimov, ayniqsa, gazetaga rahbarlik qilgan davrni tahririyatning eng ishchan, yangiliklarga boy, shiddatli davri bo'lgan, deya baholasak, mubolag'a bo'lmaydi. Bosh muharrir tashabbusi bilan o'tkazilgan birgina «Danak» operatsiyasi butun O'zbekiston bolalari va o'smirlarini birlashtirdi, millionlab murg'ak qalblarda mehnatsevarlik, hamjihatlik tuyg'ularini shakllantirdi, bolalikdanoq yurt ravnaqiga o'z hissasini qo'shishga intilish-

dek ezgu maqsadlar uyg'otdi.

Abdusaid aka yangilikka intiluvchan rahbar bo'lish bilan birga, boshqalardan ham faollikni talab qilgan, qo'l ostidagi xodimlarning layoqatini, salohiyatini o'z vaqtida payqab, necha-necha yoshlarni ijodkorlikka yo'naltirgan. U kishi qalam ahlining mehnatini doimo qadrlab kelgan.

Ijodida «yilt» etgan umid uchqunini payqagan yosh qalamkashlarga: «Ijod – bu tinimsiz mehnat, izlanish, beorom tunlar, o'zini o'zi qiynash, degani. Ko'ngildagi ijod uchquni shunday narsaki, ijtimoiy masalalar

bilan o'ralashib qolinsa, so'nadi-qo'yadi».

Ustozning samimiyatiga yo'g'rilgan bunday o'g'itlari ko'plab yosh iqtidorlarni fikran ulg'aytirdi, adabiyot, she'riyatning nurli olamiga yetakladi.

Keyingi yillarda ham bir qator mas'ul lavozimlarda mehnat qilgan ustozimiz ijodida uzilish bo'lmadi. Serqirra ijodkor qalamiga mansub «Qor», «Umid daraxtlari», «Ko'zlarimning qarog'idasan», «El suv ichgan



daryolar» nomli ko'plab kitoblari ijod mashaqqatining totli mevasidir.

Bu yurtida mehnat qilgan inson, albatta, qadr topadi, e'zoz-u ehtiromga sazovor bo'ladi. Taniqli adibimiz Abdusaid Ko'chimovning ham uzoq yillik samarali mehnatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Bugun ustoz ko'ksini davlatimizning yuksak mukofotlari – «Mehnat shuhrati» ordeni hamda «Shuhrat» medali bezab turibdi.

«Tong yulduzi» gazetasi tahririyati jamoasi hamda uning ko'pming sonli o'quvchilari nomidan Abdusaid aka Ko'chimovni muborak yoshlari bilan muborakbod etamiz. Ijodiy ishlariga parvozlar tilaymiz. «Tong yulduzi» o'quvchilari uchun ham qiziqarli, maroqli, hikoyalar, she'rlar yozib berishlariga umid qilib qolamiz.



## SENING MEHRING BILAN YASHAYMIZ, VATAN!

### MEHRING BILAN YASHAYMIZ

Yovlar yo'limizga g'ovlar solganda,  
Chechaklar bo'ronda titrab tolqanda,  
Botirlar qilichin qo'lga olganda,  
Sening mehring bilan yashadik, Vatan!  
Yog'iyalar ustidan kulganda Shiroq,  
Alisher qalbida yonganda chiroq,  
Qiyab o'rtaganda Boburni firoq,  
Sening mehring bilan yashadik, Vatan!  
Boqiydir o'tsa ham yillar, asrlar,  
Amir Temur qurgan niliy qasrlar,  
Nurga talpinganda Usmon Nosirlar,  
Sening mehring bilan yashadik, Vatan!  
Yovqur bahodirlar, devkor o'g'lonlar,  
Ko'ksini ko'ksingga qilib qalqonlar,  
Beomon janglarda to'kkanda qonlar,  
Sening mehring bilan yashadik, Vatan!  
Rosa yuz o'ttiz yil kishanlandi dil,  
Kishanlandi oyoq, kishanlandi til,  
Erk deb hayqirganda Turkistonday el,  
Sening mehring bilan yashadik, Vatan!  
Bugun yuraklarda buyuk istiqbol,  
Bugun biznikidir baxt-u Istiqbol,  
To dunyo turguncha bo'lib poydevor,  
Sening mehring bilan yashaymiz, Vatan!  
Behayo ko'zlarga bizgizlar sanchib,  
Bevafo so'zlarni somonday yanchib,  
Bor davr-u davrondan, bor jondan kechib,  
Sening mehring bilan yashaymiz, Vatan!  
Sen hali beqiyos bo'ston bo'lgaysan,  
Bulbullar bazmida doston bo'lgaysan,  
O'zbekiston, mangu yashnab kulgaysan –  
To dunyo turguncha baxtli – baxtiyor,  
Sening mehring bilan yashaymiz, Vatan!

### URGUTIM

Moviy samoga tutash qoya-yu tog'laringga,  
Ko'zlarni qamashtirgan mevazor, bog'laringga.  
Turnako'z buloqlaring, toshqin irmoqlaringga,  
Qurbon bo'lsin bu jonim – jondan aziz makonim –  
Ota yurtim – Urgutim!  
Bobo yurtim – Urgutim!

Bu kurrai zaminda zarradirsan, ehtimol,  
Zarrada quyosh – senda O'zbekiston aksi bor.  
Samarqanddek suluvning yonog'ida nuqra xol,  
Bu xolga quyosh xumor, oy xumor, yulduz xumor,  
Ota yurtim – Urgutim!  
Bobo yurtim – Urgutim!

Qizg'aldoqzor qirmi bu – Mirzo Bobur izimi?  
Bo'zto'rg'aylar navosi Humiliyning so'zimi?  
Shakarmidi, bolmida Qulqishloqning uzumi?  
Anov ohu ohumi yo Soyg'o'sning qizimi –  
Ota yurtim – Urgutim!  
Bobo yurtim – Urgutim!

Kimki senga qasd qilsa, chaqmoq ursin – xor bo'lsin!  
Nihollaring har biri azim Chorchinor bo'lsin!  
Quldortepa, Bulbulsoy, Burgutqoyang bor bo'lsin!  
Farzandlaring qalbiga Temur ruhi yor bo'lsin!  
Ota yurtim – Urgutim!  
Bobo yurtim – Urgutim!

### MIRZO ULUG'BEK HAYKALI QOSHIDA

Yulduzlarni sanash mumkindir balkim,  
Hisoblash mumkindir sayyoralarni.  
Sanab sanog'iga yetolmas hech kim,  
O'zbekzamindagi allomalarni.

Mana, ming yillarkim hayratda bashar,  
Beruniy, Navoiy, Kubrolarimga.  
Yana ming asrlar ta'zimga shoshar,  
Mirzo Ulug'bekdek daholarimga.

### YAXSHILIK

Onang nidosi bu, momong duosi:  
«Baxting butun bo'lsin, nasibang ulug'.  
Yashashning ma'nosi, baxting ma'nosi  
Yaxshilik qilishdir, faqat yaxshilik».  
Tunlari quyosh ham boqmaydi qiyo,  
Kunduzlar qaygadir berkinar oy ham.  
Kun-u tun qalbingga taratar qiyo,  
Kimgadir bir chimdim yaxshilik qilsang.  
Chanqasang, chashmadek chopib kelar u,  
Charchasang, Dulduldek kishnar qoshingda.  
Ko'zingni avrasa firibrag uyqu,  
Mehribon opangdek turar boshingda.  
Kimningdir ko'nglini ovlamoq uchun,  
Xushomad shart emas, shartmas baxshilik.  
Shart emas boyliging, qudrat-u kuching,  
Yaxshilik qilsang bas, oddiy yaxshilik.  
Mahliyo aylagay ko'zlarni mudom,  
Hazrati Sherdorning tilla naqshidek.  
Vaqt yetib, dunyodan ketganingda ham,  
Yashaydi sen qilgan oddiy yaxshilik.

## NAVBAT – SHAHAR BOSQICHIGA!

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi tashabbusi bilan Toshkent shahar Xalq ta'limi bosh boshqarmasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, «Yoshlar ovozi», «Tong yulduzi» gazetalarini va yana qator tashkilotlar bilan hamkorlikda «Mustaqillik – mening tasavvurimda» nomli ko'rik-tanlov e'lon qilina edi.

Mazkur tanlovning maktab bosqichlari yakunlandi. G'oliblar endi tanlovning navbatdagi – tuman bosqichlarida o'zaro bellashishyapti. Jumladan, poytaxtimizdagi 316-umumta'lim maktabida mazkur tanlovning Shayxontohur tumani bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tuman maktablaridan eng iqtidorli deb topilgan 2 nafardan ijodkor o'quvchilar she'riyat hamda tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish etdilar. O'zMTDP Shayxontohur tumani Kengashi raisi hamda tuman deputatlaridan tashkil topgan hakamlar hay'ati a'zolari ishtirokchilarga o'rin berishda biroz ikkilanib ham qolishdi. Boisi, ijodkorlarning 20 daqiqalik muhlat ichida qoralab kelgan she'riy mashqlari buyuk ne'mat – mustaqilligimizni tasavvur qilib chizgan rasmlari mazmun jihatdan ham, texnika jihatdan ham bir-biridan qolishmas edi. Lekin



tanlov o'z nomi bilan tanlov! Shunday ekan, uning g'oliblari ham bo'lishi kerak, degan nuqtayi nazar bilan yondashib, g'oliblar aniqlandi. She'riyat yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni 169-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Otabek Ortiqov egallagan bo'lsa, tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha g'oliblik 113-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi Zulxumor Erkinovaga nasib etdi. Ularga O'zMTDP Shayxontohur tumani Kengashi tomonidan diplom hamda deputatlik guruhi tomonidan tayyorlangan qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi. Shuningdek, tanlovning 2- va 3-o'rin sohiblari hamda «Eng faol ishtirokchi» nominatsiyasi g'oliblari ham aniqlanib, esdalik sovg'alari ulashildi.

– Ma'lumki, rag'bat keksami, yoshmi, har qanday ijodkorni ruhlantiradi, o'z qobiliyati, iqtidoriga bo'lgan ishonchini oshiradi. Mazkur tanlov orqali poytaxtlik yosh iste'dod egalarining o'zlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, adabiyotga, san'atga bo'lgan mehrini oshirishga, eng muhimi, ular qalbidagi mustaqil Vatanimizga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini yanada oshirishga hissa qo'sholgan bo'lsak, tanlov o'tkazishdan ko'zlangan maqsadimizga erishgan bo'lamiz, – dedi Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashidagi O'zMTDP guruhi ijrochi kotibi Qudratilla Po'latov.

Darhaqiqat, ko'rik-tanlovlar bejiz o'tkazilmaydi. O'quvchi-yoshlar orasida jur'atsizlik qilibmi, tortinibmi, o'z ijod namunalari hech kimga ko'rsata olmay yurgan yoki kimga ko'rsatishni bilmaydigan iqtidorlar yo'q emas. Shu kabi tanlovlar ularning ijod buloqlari ko'zini ochib yuborsa, ajab emas.

G'oliblarga esa tanlovning yakuniy – shahar bosqichida ham muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

F. JALILOVA

Tahririyatimizda turli viloyatlardan hamda poytaxtimizning ijodkor o'quvchilari kelib, ijod namunalari taqdim etishadi. Biz bu ijodiy ishlarda iste'dod uchquni «yalt» etganlarini gazetamizda chop etishga harakat qilamiz hamda yozganlarining kamchiligi haqida maslahat beramiz. Ba'zan ustozlar ham tahririyatimizga tashrif buyurib, gazetamiz faoliyati bilan tanishadi. Navbatdagi mehmonimiz Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi 17-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Davlat aka Xudoyorov bo'ldi. Suhbatimiz olis qishloq maktabidagi o'quvchilarining kitobxonligi haqida bordi.

## KO'NGILGA TASHRIF

Adabiyot darslari tufayli o'quvchida mutolaaga havas uyg'onadi. Shu o'rinda o'quvchilarning ijod mahsullari yuzasidan maslahat olishlari, qalamini charxlashi uchun adabiyot to'garaklariga, shoir va yozuvchilar ishtirokidagi uchrashuvlarga, davra suhbatlariga ehtiyoj seziladi.

Shu bois, ijodkor o'quvchilar bilan ishlashga alohida e'tibor qarataman. O'quvchi nafaqat voqealar rivoji bilan tanishibgina qolmay, tabiat go'zalligini, qahramonlarning ichki kechinmalarini ularning dilini ham his qilsin, sezsin, deymen. 7-«A» sinf o'quvchisi Sevinch Zulfiqorova 2018-yili «Yuksak ma'naviyatli avlod» tanlovining tuman bosqichida g'olib bo'ldi. 2019-yili esa «Kamalak» yulduzlari tanlovining viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Muxlisa Zulfiqorova, Bobur Xudoyberdiyev kabi ijodkor shogirdlarim bor. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Abdulhamid Qodirov bilan maslahatlashib, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtiramiz. Bu yil tumanimizda obuna jarayoni yaxshi bo'lmadi.

Ijodkor o'quvchilarimiz faqat tuman, viloyat gazetalarini orqali chiqishlar qilish bilanгина chegaralanib qolayapti. O'quvchilarimning ijodiy ishlari Respublika bolalar nashrlarida ham chop etilishini istayman. Shundaygina iste'dodlar qalami charxlanadi.



Yaqinda Davlat aka tahririyatga qo'ng'iroq qilib, tumandagi barcha umumta'lim maktabi o'quvchilari o'z xohishi bilan gazetaga obuna bo'lish istagini bildirishganini aytdi.

Surxondaryolik o'quvchilardan xushxabarlar kutamiz!

Nodira NAZAROVA

## ISTE'DOD SOHIBASI

Iste'dodli yoshlardan biri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Bibijamal Dilimbetovadir. Uning she'riyatga qiziqishi, eng avvalo, she'riy kitoblar o'qishdan boshlangan. Keyinchalik o'zi ham bolalar hayotiga oid she'rlar yoza boshlagan. U ayni paytda «Barkamol avlod» bolalar markazi «Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zosi.

– To'garagimiz a'zosi Bibijamal o'zining izlanuvchanligi bilan tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ldi. Jurnalistikaga bo'lgan qiziqishi ortdi. U 2016-yildan buyon tuman, viloyat va respublika bosqichidagi tanlovlarda faol qatnashib kelmoqda. 2016–2018-yillarda «Bilimlar bellashuvi»da qoraqalpoq tili va adabiyoti fanidan 3-o'rin, «Men o'qigan kitob» tanlovida tuman bosqichida 1-o'rin, «Bag'rikeng O'zbekiston» tanlovida nazm yo'nalishida 1-o'rin, 2018-yili «Yilning eng yaxshi iste'dodli yosh ijodkori» tanlovida 3-o'rin, «Jetkinshek» gazetasi tomonidan tashkil qilingan «Agar men tadbirkor bo'lsam» tanlovida 2-o'rin, «Men nechun sevaman O'zbekistonni» tanlovining respublika bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

– O'tgan yili yosh ijodkor qizimizning «Parvoz qilaman» nomli ilk she'riy to'plami nashr qilindi, – deydi faxr bilan ustoz Nargiza Daribayeva. – Uning bunday kitoblari soni hali juda ko'p bo'ladi...

Ustozning shogirdidan umidi katta. Bibijamal ustozining ishonchini, mehnatlarini, albatta, oqlashiga bizning ham ishonchimiz komil.

Ayjama KARAMATDINOVA,  
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti  
Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi



**Bolajonlar, yozgi ta'tilni qanday o'tkazish haqida allaqachon rejalar tuzib qo'ygandirsiz-a?**

# TA'TILNI QANDAY O'TKAZASIZ?

Masalan, ba'zi bolalar ta'tilni qishloqda, buvisi va bobosining yonida, xushmanzara tabiat qo'ynida o'tkazishni istasa, boshqalar jonajon maktabidan ayrilgisi kelmaydi. Jumladan, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 40-umumta'lim maktabi o'quvchilari singari. Ushbu maskanda ajoyib bolalar o'yingohi ochildi. Keling, bu haqda maktab rahbari Dilfuza

opa Nizomovadan eshitaylik: - Maktabimizda «Barkamol avlod» nomli o'yin maydonchasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Maydonchamiz 4 ta mavsumga mo'ljallangan bo'lib, har bir mavsumda 100 ga yaqin bolalar hordiq chiqaradilar. O'yin maydonchamiz beshta tashabbus asosida ish olib boradi. Unda bolajonlarimiz 9<sup>00</sup> dan 12<sup>00</sup> gacha o'zla-

rini qiziqtirgan to'garaklarda mashg'ulot bilan band bo'lishadi. Masalan, mohir qo'llar, sport to'garaklari, «Shodiyona» bolalar teatr studiyasida madaniy hordiq olishlari, turli sport o'yinlarini tashkil etishlari, shuningdek, kutubxonadan foydalanishlari mumkin.

- Bolalarning har bir kunini mazmunli tashkil etishda oromgoh rahbari, bosh tarbi-



yachi, yetakchi hamda to'garak rahbarlari birdek mas'ul bo'ladi, - deydi Dilfuza opa. Qadri bolajonlar, siz ham maktabingizda ochilgan turli

to'garaklarga qatnashishni, yozni mazmunli o'tkazishni unutmang.

**Nigora ABDUNAZAROVA**

**Temuriy shahzodalarning tarbiyasi asosan, ularning momolari zimmasida bo'lgan ekan. Mirzo Ulug'bekning dono va zakovatli bo'lib ulg'ayishida momosi Saroymulxonimning o'rni beqiyos bo'lganligi so'zimga isbot bo'la oladi.**

## MOMOLARNING QO'LI DUODA

Bizning tarbiyamizda ham bobo-yu momolarimizning o'rni juda muhim. Keling, gaplarim isbotini o'z hayotim misolida gapirib beray. «Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin», «Yuzga kirsang, yuz yil o'qi», «Birni biroy beradi, ko'pni mehnat». Momom mana shu kabi maqol va matallarni ko'p takrorlaydi. Dasturxon atrofida duoga qo'l ochilganda, avvalo, «Ko'p bersin, ko'p bersin, ketmas davlat mo'l bersin. Supra to'la un bo'lsin, g'alla to'la don bo'lsin. Tanimizdan sog'lik, rizqimizdan baraka ko'tarilmasin...», deydi momom yuziga



fotiha tortarkan. Ularning so'zlaridan kuch-quvvat olgandek bo'laman. Tesha tegmagan maqol va hikmatli so'zlarni eshitib, qalbm zavqqa to'ladi. Momomning sermazmun suhbatlaridan sizlarni ham bahramand etmoqchiman. «Bizning vaqtlarda televizor, kompyuter degan narsalar bo'lmas edi. Yoshligimizda bir daqiqa ham bekor o'timasdik. Hammamiz turli xil ish bilan band bo'lar edik. Bo'sh vaqt topildi, deguncha dars tayyorlashga, kitob o'qishga tutinardik. Hali-hamon esimda, kechalari enamiz moychi-roq yorug'ida shirali ohangda, ohista Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy g'azallaridan aytib berardilar. Biz esa tancha atrofida g'uj bo'lishib jon qulog'imiz bilan uni tinglardik. Ayniqsa, Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmatlarini sevib yodlaganmiz. Kim ko'p she'r, g'azal yoki fard yodlasa, enamiz shu farzandini bir hovuch turshak yoki mayiz bilan siylardi», deb eslaydilar.

Aziz tengdoshlarim, ayting-chi, siz ham

bobongiz yoki momongizdan shunga o'xshash qiziqarli voqea yoki ibratli hikoyalar eshitganmisiz? Eshitgan bo'lsangiz, ularni doimo yodda tutishga odatlaning, men kabi barcha tengdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

**Momomning tilaklari:** Aziz farzandlarim, mehnat, o'qish va izlanishdan aslo charchamang. Yoshlik damlaringizni savobli ishlarga, ilm o'rganishga sarf qiling. Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas. Zero, mehnat va o'qish og'a-ini. G'ayrat hamda shijoat doimgi hamrohingiz bo'lsin.

**Dilshodbek RAHMATULLAYEV, Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi**

### «BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» TANLOVIGA

**Har kuni tongda suvning jo'mragini burab, bebaho ne'matdan bahra olganча yuz-qo'limizni yuvamiz.**

**So'ng, nonushta tayyorlar ekanmiz, gaz yoqamiz. Shu tariqa kechgacha bu tabiiy boyliklardan istaganimizcha foydalanamiz. Lekin hech ularning manbalari, me'yori haqida o'ylab ko'rganimizmi?**



## TEJAMKORDA BARAKA BOR

Bir kuni oynayi jahonda berilgan ko'rsatuvda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish haqida so'z yuritilganini eshitib qoldim. Shunda kuniga o'rtacha qancha elektr, suv va gaz sarflashimizni hisoblab ko'rmoqchi bo'ldim. Shu payt dadam va oyimning bu ne'matlar uchun hisoblagichda ko'rsatilgani bo'yicha har oy haq to'lashlarini esladim. Xullas, bu boyliklarni qancha asrasak, ota-onamizning mehnat qilib topgan pullari ham tejaladi. Shu o'rinda biz bolalar, ayniqsa, elektr-energiyani behudaga ko'p ishlatishimizni tan olib aytib o'tmoqchiman. Masalan, ayting-chi, siz bir kunda qancha vaqt televizor tomosha qilasiz? Oramizda hatto turli o'yinlar o'ynayotgan, dars tayyorlayotgan yoki ovqatlanayotganda ham uni o'chirib qo'ymaydiganlar bor. Men ham endilikda xonadonimizda behudaga chiroq yoqilib turishi-yu, suvning ortiqcha sarflashimizga yo'l qo'ymaslikka harakat qilmoqdaman. Zero, bu ne'matlarisiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Ularisiz vaqtda taomimiz tayyor, ust-boshimiz ozoda bo'lmaydi. Shunday ekan, tabiiy boyliklarni tejash orqali hayotimizni farovon, ro'zg'orimizni barakali va yurtimizni obod qilgan bo'lamiz.

**Asila ARALOVA, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi**

## BAXT BU...

Ma'naviyat darsida ustozimiz Surayyo opa Xudoyberdiyeva «Baxt o'zi nima?» mavzusida tarbiyaviy soat o'tdilar. Biz baxt haqidagi tushunchamiz bilan o'rtoqlashdik. Birinchi bo'lib doskaga Nizom Mestanov chiqdi va:

- Men Olloh tomonidan bizga berilgan hayotni va har bir yangi kunimizni baxt deb bilaman, - deya javob berdi.

Nasiba To'laganova esa:

- Ota-onamning salomatligi men uchun ulkan baxt, - dedi.

Boshqa sinfdoshlarim ham baxt haqidagi fikrlarini bildirishdi.

Men ham o'ylanib qoldim, xo'sh, men uchun baxt nima? Menimcha,

bizning

eng katta baxtimiz - yurtimizning tinchligi, bilim olishga bo'lgan imkonimizning yetarli ekanligi. Ko'zlarimiz yorug' olamni ko'rib turgani, quloqlarimiz eshitishi, borliqni his qila olishimiz, bir so'z bilan aytganda, bu bizning baxtimiz!

Eng asosiysi, baxt tushunchasini his qila olayotganimiz to'kis baxtimizdir. Aziz tengdoshim, siz baxtni qanday tasavvur etasiz, bir o'ylab ko'ring-a?!

**Ortig'oy SAYDULLAYEVA, Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi**



# ILK QADAM

«Ilk qadam» maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv-dasturini amaliyotga joriy etish maqsadida, men o'zim faoliyat yuritib kelayotgan maktabgacha ta'lim muassasasining kichik guru-hida «Sog'lom tanda sog'lom ruh» nomli ochiq mashg'ulot o'tkazdim.

Ruhshunoslar kuzatuvlari ostida o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonida shunga amin

bo'ldimki, bolaning qanday inson bo'lib ulg'ayishi, eng avvalo, ota-ona tarbiya-

si va atrof-muhit ta'siriga bog'liq ekan. Bola yoshligidan ota-onasi, o'rtoqlari, atrofidagilardan ma'naviy ozuqa oladi, ularga taqlid qiladi, ko'pgina urf-odatlarni, xulq-odobni atrofidagilardan o'zlashtiradi. Bola tarbiyasida ularning yosh jihatiga, ruhiyat va tushunchasiga, fe'l-atvoriga alohida ahamiyat berish zarur, deb hisoblayman. Mashg'ulotlar jarayonida bolajonlar ko'rish, eslash qobiliyatlari yaxshiligini yana bir bor isbotladilar. Ular stol ustidagi betartib yoyib

qo'yilgan sport anjomlarini birma-bir o'rninga qo'yib, yelimlab, bo'yab chiqishdi. «Shifokor va bemor» o'yini orqali bemor bolaga yordam berish kerakligini ko'rsatib berishdi. Demak, bolajonlarimizning komil inson bo'lib ulg'ayishlari, hayotda to'g'ri kasb yoki hunar egallashda ilk qadamni maktabgacha ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yish kerakligini, «Ilk qadam» davlat o'quv-dasturi o'z vaqtida ishlab chiqilganiga amin bo'ldim. Yana shuni tushunib yetdimki, Preziden-

timiz ta'kidlaganidek, kitobga bo'lgan mehr-muhabbatni farzandlarimiz qalbiga kichik yoshdanoq singdirish kerak. Har bir ota-ona bolasi boradigan bog'chaga bir donadan ertak kitobi sovg'a qilsa, u yerda kutubxonalar tashkil etilsa. Bolalar tug'ma artistlardir, ular taqlidni yaxshi ko'radilar. Ertak qahramonlari obraziga kirib o'qish jajji bolajonlarimizni tarbiyalashda katta naf keltiradi.

**Nafisa PO'LATOVA,**  
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 540-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi



Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchilari ishtirokida «Xayr, birinchi o'qituvchim» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Unda 32 nafar shogirdlar ustozlari Tursunoy opa Hasanovaning ishonchlarini oqlashga va'da berib, birinchi muallimlari bilan xayrlashishdi.

## TIPS TO LEARN A LANGUAGE

### BUILD YOUR VOCABULARY

Work on building your vocabulary every day by choosing new words to learn and repeating each word over and over to reinforce the memory of those new words. Choose five new words that you would like to learn each day. Write the words and their meanings out on paper at least ten times each.

### SPEAK ENGLISH

Speaking English daily will help you learn English and will also help your confidence while speaking the language.

### ACTIVE LISTENING

Listen intently to a variety of English content anywhere you can. Paying close attention to sources like the news, popular songs and everyday conversations can greatly increase your knowledge of words.

### READ OFTEN AND READ OUT LOUD

Reading will help in the repetition of seeing what English words look like. Reading out loud will help you pair the sound of words to the text on the page.

### PRACTICE WITH FRIENDS

Going to the movies  
Eating at a café  
Talking about school

### SET GOALS

New language is always difficult, but with practice you will be a pro in no time. Just remember to keep trying and don't give up!

## Lesson 22

## WORD SEARCH

- |           |               |          |        |
|-----------|---------------|----------|--------|
| Ice-cream | Travel Agency | Journey  | Camera |
| Fun       | Sunglasses    | Swim     | Sun    |
| Summer    | Sand toys     | Postcard | Hat    |
| Holiday   | Float         | Beach    | Ball   |



I	D	T	R	A	V	E	L	Z	C	X	V
G	C	B	W	Z	S	A	G	E	N	C	Y
P	A	E	J	O	U	R	N	E	Y	A	H
O	R	A	C	D	M	P	Q	O	H	M	O
S	D	C	Q	R	M	M	S	W	C	E	L
T	R	H	S	Q	E	N	T	U	D	R	I
S	A	N	D	D	R	A	G	Y	N	A	D
W	T	O	Y	S	O	D	M	R	T	W	A
I	A	U	E	L	L	B	E	A	M	I	Y
M	H	P	F	O	J	A	H	S	D	F	H
T	L	S	U	N	G	L	A	S	S	E	S
V	B	M	N	H	A	L	T	Y	M	T	I

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

## TONGUE TWISTERS

I scream you scream, let's all scream, for ice cream!

Chester Cheetah chews a chunk of cheap cheddar cheese.

If the chunk of cheese chunked Chester cheetah,  
What would Chester cheetah chew and chunk on?

**My SMART GOAL**

I want to \_\_\_\_\_

by \_\_\_\_\_

so I will \_\_\_\_\_

to meet my goal \_\_\_\_\_



# DO'KON O'RNIDA KUTUBXONA

**Muxbir emasmizmi, har kuni turli maktablarga bir-biridan ajoyib tadbir-u bayramlarga taklif qilishadi.**

## AKTRISA O'Z G'AM DARS

**Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabida xalqimiz suygan aktrisa Zuhra Soliyeva bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Dastlab ustoz Dilfuza To'xtaxo'jayeva davrani ochib berib, o'quvchilarni mehmon bilan tanishtirdi. So'ng, videorolik orqali aktrisaning ijro etgan rollari namoyish etildi. So'z navbati mehmonning o'ziga berilganida esa aktrisa bolaligi, san'atga kirib kelishi, ijodi haqida so'zlab berdi.**

Uchrashuvning eng maroqli qismi Zuhra Soliyevaning o'quvchilarga rus tili fanidan o'tgan darsi bo'ldi. Qiziqarli darsdan so'ng bolajonlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi. «Til o'rganish, kitob o'qishga munosabatingiz qanday?» degan savolga san'atkor quyidagicha javob berdi:

– Til bilsangiz, dunyoni taniysiz. Hayotning past-balandliklaridan o'tishda esa bizga kitoblardan olgan bilimlarimiz yo'l ko'rsatadi. Yana bir tengdoshingizning «Ba'zi o'quvchilar qaysi kasbni tanlashlariga qarab fanlarni o'rganishadi, siz bunga nima deysiz?» degan savoliga esa Zuhra Soliyeva: «Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, inson dunyoqarashi keng, ma'naviyatli bo'lishi uchun barcha fanlar ahamiyatlidir. Ko'p bilgan insonning qadri baland bo'ladi», deb javob berdi.

Kechada o'quvchilar bir olam taassurot olib, san'atkorga tashrif uchun minnatdorlik bildirishdi.

Muzaffar AHMEDOV

Bu safar «Maktabimizda ikkinchi kutubxona ochildi, bir kelib ko'ring», deya bizni poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 308-umumta'lim maktabiga chorlashdi. Ajoyib tashabbus bilan tanishish maqsadida ta'lim maskaniga tashrif buyurdik. Buni qarangi, maktab darvozasining yonginasidagi pastakina bino peshtoqiga «Kutubxona» deb yozilgan ekan. Ha, ikkinchi kutubxona shu ekan-da, unda ishni shu yerdan boshlaymiz, deya ichkariga kirdik. Mo'jazzgina kutubxona ochilgan kunioyok kitobxonlarga to'libdi. Ulardan biri 8-«A» sinf o'quvchisi Sevinch Ubaydullayeva dugonalari bilan rang-barang kitoblarni ko'zdan kechirib, ta'tilda «Yulduzli tunlar» asarini o'qishni rejalab qo'yibdi. Bizga yuzlangan kutubxonachi Xadicha opa Xodjayeva esa hayajon bilan gap boshladi:



– Avvallari bu yer kichkina do'kon edi. Lekin, o'ylab ko'rsak, do'kondan ko'ra o'quvchilarimiz uchun yana bir kutubxona tashkil qilsak, nafi ko'proq bo'lar ekan. Maktabimiz direktori Dilbar opa Rasulova tashabbusi bilan barchamiz birgalikda ko'rib turganingiz – mana shu o'quv zalini tashkil qildik. Kutubxona uchun direktor fondidan jami bir million uch yuz ming so'mlik yangi kitoblar xarid qilindi. Eng quvonarlisi, yozgi ta'tilda o'quvchilarimiz va mahalla bolalari istagan vaqtlarida kitob o'qishlari uchun keng imkoniyat yaratildi.

Suhbatimizga qo'shilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Saodat opa Xayitmetova bu ishlar orqali Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbusni amalga oshirish

ham ko'zda tutilganini ta'kidladi.

7-«V» sinfining iste'dodli o'quvchisi Hilola Hakimova ijodiy ishlari bilan Sankt-Peterburg va Qozog'istonda o'tkazilgan bir qator tanlovlarda Gran-pri sohibi bo'lgani haqida so'zlab berdi. Xullas, bu galgi tashrif-u taassurotlarimiz ham bir olam bo'ldi. Keyingi manzilimiz Sizning maktabingiz bo'lsa, ajabmas! Zero, biz yurtimizning barcha bolalari bilan do'stlashishni, hamkorlik qilishni istaymiz!

S. QODIROVA

## OLIMPIADA CHEMPIONI O'QIGAN MAKTAB

**Qunduzoy Bahodirova Andijon viloyati, Buloqbohi tumanidagi 9-umumta'lim maktabining 3-«B» sinfida o'qiydi. U bolaligidan sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanadi. Qunduzoy yosh bo'lishiga qaramay, viloyatlar bo'ylab o'tkazilgan musobaqalarda qatnashib, sovrinli o'rinlarga erishib kelmoqda.**

– Ustozim Manzuraxon G'oziyevadan badiiy gimnastikaning sir-asrorlarini qunt bilan o'rganib, ko'pgina yutuqlarga erishyapman. Jumladan, joriy yili bo'lib o'tgan musobaqada 10 yoshlilar orasida bellashib, besh marta 1-, ikki marabta 2-o'rinni egalladim, – deydi Qunduzoy. Ha, aytganday, Qunduzoy Olimpiada chempioni Hasanboy Do'stmatovning maktabdoshi ekan. Qunduzoyga kelajakda bundan-da ulkan zafarlar tilab, ota-onasi va ustozlari ishonchini oqlashida tilakdoshmiz.

Dadajon AHMADALIYEV, Andijon viloyati

## «SHARQ ATIRGULI»DAGI G'OLIBLIK BAYRAMGA SOVG'A BO'LDI

**Buxoro sharifida Ahmadjon Ixtiyorov nomli 5-Bolalar musiqa va san'at maktabi bor emish.**

Ilshod aka Xayaliyev rahbarligidagi mazkur maktabning «Zarb»chi o'g'lonlarining dong'i Toshkentga yetubdir. Ular poytaxtda o'tkazilgan «Sharq atirguli» nomli xalqaro bolalar va yoshlar festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etib, diplomga sazovor bo'lishibdi. Siz suratda ko'rib turgan tengdoshlaringiz



Buxoro tumanidagi 32-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi Alisher Abdullayev va 28-umumta'lim maktabining 6-«G» sinf o'quvchisi Odilbek Toshpo'latov esa chiroyli ijro uchun alohida diplomni qo'lga kiritishdi. Ustozlari Haydar aka Xolov ishonchini oqlagan yosh doirachilarga bu yutuqlari bayramona sovg'a bo'lsa, ajabmas!



**Aziz o'quvchilar, sonlarni adashtirmay aytishni, qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini osongina bajarishni istaysizmi? Sonlarga oid she'r va topishmoqlarni yod olib, zehningizni oshirishni-chi? Unda, albatta, sevimli shoirimiz Ochil Tohirning siz bolajonlar uchun «Sanay turib, adashma» deb nomlangan she'riy to'plamini o'qing. Quyida ushbu kitobchadan o'rin olgan ba'zi she'rlardan e'tiboringizga havola qilamiz.**



**Ochil TOHIR,**  
bolalar shoiri

## TO'RT AMAL

Qolsin deb esingizda,  
Aytib qo'yayin sizga.  
Bilingiz, bolajonlar,  
Oddiy emas bu sonlar.

Qilayin sizga ayon,  
Raqamlar sirli, pinhon.  
Arifmetik to'rt amal,  
Sonlarga yechim – tamal.

Ayiruv (-) va qo'shuvni (+),  
Sonlarda «tortishuv»ni.  
Shunday ekan, basharti,  
Ketma-ketlikdir sharti.

Oshirib siz marrani,  
Jadvaldagi karrani.  
Tartib-qoida qilib,  
Olingiz tezda bilib.

So'ngra, bo'lmas qiyin ish,  
Ko'paytiruv (x) va bo'lish (:).  
Ishtiyiq bo'lsa kimda,  
Bilib olar bir zumda.

Oddiy demang bu chiziq (-),  
Ma'nosi juda qiziq.  
«Ayiruv» (-) deb atalar,  
Yaxshi bilar kattalar.

Ko'pdir mo'jiza – siri,  
Aytсам shulardan biri –  
Kattasidan kichik son,  
Ayrilar oppa-oson.

Esda tutingiz mudom,  
Hatto eng kichik – «1» ham.  
Ayirishga bordir yo'l,  
Bundan xoli faqat «0».

Deylik qo'shuvga (+) misol,  
Bo'lar xoch shakli timsol.  
Kichik sonmi yo yirik,  
Kifoyadir bir xillik.

Mayda yo katta raqam,  
Joyalari almasha ham,  
Xuddi arqonday eshib,  
Sonlarni bo'lar qo'shib.

Bu oddiy hol, qoida,  
Doimo bo'lsin yodda.  
Kasb etmaydi ahamiyat,  
O'zgarmas aslo qiymat.

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

# «ONA TABIAT MADHI» LINVORDI

Linovrdning javoblarini topgandan so'ng, chizmaning ostki qismidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirish orqali muammonomani hal eting. Bunda ulardan ona tabiat madh etilgan ikki hikmatni bilib olasiz.

Dorskaga yozuvchi «qalam»		Qush osh-yoni		Dastlabki, boshlang'ich		Kechirish, avf etish		Surxondaryo viloyatidagi tuman			Imoratning eng yuqori qismi			... Rahmat (bolalar adibi)			Shunday qilib, xullas kalom so'zlarining ma'nodoshi				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18				
Bir ko'zi ochiq holda uxlaydigan yirtqich			Dunyodagi eng uzun daryo			Yilning oltin fasli		Rassom ashyosi, bo'yoq modda		Biror narsadan narigi tomon		Ishning o'ngidan kelishi, baxt, tole		Shamsiya yil hisobining birinchi oyi		Nasriy asarga xos adabiy janr					
*****ONA TABIAT MADHIHIKMATLARI*****																					
**	11	8	1	17	8	11	3	17	**	17	7	7	8	11	**	2	17	4	9	8	3
**	6	3	17	3	9	**	14	17	15	15	8	11	17	3	17	**	5	2	10	8	-
**	13	17		11	8	1	17	8	11	**	8	10	17	13	8	3	**	14	8	15	**
**	**	8	18	8	4	**	6	3	13	17	13	8	**	12	4	9	8	3	.	**	**

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

**Tong yulduzi**  
Muassis:  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruza ADILOVA  
Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAYATI:**  
Qahramon QURONBOYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Sayyora QODIROVA  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilmiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: [lme/tongyulduz](https://t.me/lme/tongyulduz)  
Adadi – 12 626  
Buyurtma – V 3466

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08